YANGI O‘ZBEKISTONDA QADRIYATLAR TRANSFORMATSIYASI ZARURATI

Elyor Shavkatovich Oripov
QDU

Annotatsiya: Maqolada Yangi O‘zbekiston davrida ijtimoiy, ma’naviy va siyosiy qadriyatlar tizimida yuz berayotgan o‘zgarishlar va ularning zaruriyati ilmiy tahlil qilinadi. Qadriyatlar transformatsiyasining asosiy omillari - globallashuv, raqamli modernizatsiya, demokratik islohotlar, shaxs erkinligi va fuqarolik jamiyatining kuchayishi kabi jarayonlar bilan bog‘liq ravishda asoslab beriladi. Tadqiqotda mavjud nazariy qarashlar, ijtimoiy dinamika va islohotlar ta’siridagi o‘zgarish tendensiyalari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Yangi O‘zbekiston, qadriyatlar transformatsiyasi, modernizatsiya, globallashuv, raqamli o‘zgarishlar, fuqarolik jamiyati, demokratik islohotlar, ma’naviy yangilanish

THE NEED FOR VALUE TRANSFORMATION IN NEW UZBEKISTAN

Elyor Shavkatovich Oripov
KSU

Abstract: This article provides a scientific analysis of the changes occurring in the social, spiritual, and political value system during the era of New Uzbekistan and explains the necessity of these transformations. The main factors driving value transformation - globalization, digital modernization, democratic reforms, individual freedom, and the strengthening of civil society - are examined in detail. The study highlights existing theoretical approaches, social dynamics, and trends influenced by ongoing reforms.

Keywords: New Uzbekistan, value transformation, modernization, globalization, civil society, reforms, spiritual renewal

Kirish. Yangi O‘zbekistonni barpo etish jarayoni jamiyat hayotining barcha jabhalarini qamrab olgan keng qamrovli islohotlar bilan kechmoqda. Bu jarayonning asosiy bosqichlaridan biri - qadriyatlar tizimini qayta ko‘rib chiqish, uni zamon talablari bilan uyg‘unlashtirishdir. Qadriyatlar transformatsiyasi ijtimoiy taraqqiyotning ajralmas elementi bo‘lib, siyosiy madaniyatni yangilash, ma’naviy yuksalishni qo‘llab-quvvatlash va fuqarolarning yangicha dunyoqarashini shakllantirishga xizmat qiladi.

(cc) BY

XXI asrda global axborot oqimi, raqamli iqtisodiyotning kengayishi, madaniy almashinuvlarning jadallashuvi milliy qadriyatlarga yangi baho berishni talab qilmoqda. Bu esa, o‘z navbatida, Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida inson omilining birinchi o‘ringa qo‘yilishi bilan bevosita bog‘liq. Sh.Miromonovichning Yangi O‘zbekiston taraqqiyoti strategiyasida “Yangi O‘zbekiston orzusi, bugungi davrning taqozosi, uning harakatlantiruvchi kuchlari va omillarini belgilaydigan g‘oyaviy-ma’naviy asos” sifatida ta’riflanadi[1]. Bu yerda milliy qadriyatlar transformatsiyani boshqaruvchi fundamental omil sifatida ko‘riladi, ya’ni qadriyatlar jamiyatning zamonaviy islohotlarga moslashuvi uchun kontekstalanadi. Shu bois, qadriyatlar transformatsiyasi jarayonini ilmiy asosda o‘rganish, uning zaruriyati va mexanizmlarini tahlil qilish dolzarb hisoblanadi.

Metodologiya

Tadqiqotda quyidagi ilmiy metodlar qo‘llanildi:

1. Tahliliy-metodik yondashuv- mavzu bo‘yicha ilgari yaratilgan ilmiy adabiyotlar, O‘zbekistonning rivojlanish strategiyalari, ijtimoiy-siyosiy islohotlar mazmuni tahlil qilindi[2].

2. Taqqoslash metodi- O‘zbekistonning mustaqillikdan oldingi va keyingi qadriyatlar tizimi o‘zaro solishtirilib, Yangi O‘zbekiston davridagi o‘zgarishlarning o‘ziga xos jihatlari aniqlab berildi.

3. Sotsiologik qarashlar- jamiyat ongidagi dinamik o‘zgarishlar, yoshlar dunyoqarashi, milliy identitet va modernizatsiya jarayonlarining o‘zaro ta’siri ijtimoiy nazariyalar asosida sharhlanadi. Xususan, “globallashuv jarayoni milliy qadriyatlarni inkor etmaydi, balki ularni yangi tarixiy sharoitda qayta talqin qilishni taqozo etadi. Bu jarayonda qadriyatlar o‘zining an’anaviy shaklidan zamonaviy mazmunga ega bo‘lib, transformatsiyalanadi”[3].

4. Struktural-funksional tahlil - qadriyatlar tizimining jamiyatda bajaradigan vazifalari va ularning transformatsiya jarayoniga ta’siri izohlandi.

Natijalar

1. Qadriyatlar tizimining yangilanishi ob’ektiv zaruratga aylandi

O‘zbekistonning ijtimoiy-siyosiy hayotida olib borilayotgan demokratik islohotlar, inson huquqlarining kengayishi, davlat boshqaruvida ochiqlik va shaffoflikning kuchayishi yangi ijtimoiy qadriyatlar shakllanishiga asos bo‘lmoqda. Bular orasida: fuqarolik faolligi, mas’uliyat va tashabbuskorlik, shaxs erkinligi va o‘zini anglash, qonun ustuvorligini qadrlash, ilm-fan va innovatsiyaga e’tibor alohida o‘rin tutmoqda.

2. Milliy qadriyatlar va zamonaviy universal qadriyatlar uyg‘unlashmoqda

Yangi O‘zbekiston siyosati milliy an’analardan voz kechmasdan, global dunyo bilan uyg‘un integratsiyani maqsad qiladi. Shu bois, qadriyatlar tizimida quyidagi yo‘nalishlar kuchaymoqda:

(cc) BY

- oila institutining mustahkamligi,
- bag‘rikenglik,
- diniy-ma’rifiy ongning yuksalishi,
- sadoqat va vatanparvarlik

kabi qadriyatlar yangi mazmun bilan boyimoqda. Bular bilan bir qatorda demokratiya, inson huquqlari, gender tengligi, inklyuzivlik kabi universal qadriyatlarga ijtimoiy talab oshdi.

3. Yoshlar dunyoqarashidagi o‘zgarishlar transformatsiyaning asosiy harakatlantiruvchi kuchi bo‘lmoqda. Axborotlashgan jamiyatda yoshlar globallashuvning asosiy subyekti sifatida milliy qadriyatlarni yangi ijtimoiy tajriba asosida qabul qiladi, bu esa qadriyatlarning avlodlararo transformatsiyasiga olib keladi[4]. Raqamli avlod vakillari sifatida yoshlar:

- ochiq axborot muhitida yashayapti,
- global mehnat bozoriga yo‘naltirilgan,
- innovatsion tafakkurga ega,
- yangilikka ochiq. Bu esa qadriyatlar tizimini yangilash jarayonida ularni asosiy sub’yektga aylantirmoqda.

4. Raqamli transformatsiya qadriyatlar mazmuniga ta’sir qilmoqda

Ommaviy axborot vositalarining tijoratlashuvi natijasida ommaviy makon axborot almashinuvi maydonidan ko‘ra, ijtimoiy ongni shakllantiruvchi va qayta yo‘naltiruvchi qadriyatlar mexanizmiga aylanadi. Raqamli madaniyatning shakllanishi mehnat, muloqot, ta’lim, axborot iste’moli kabi sohalarda yangi ko‘nikma va qadriyatlarni yaratmoqda. Masalan:

- axborot madaniyati,
- media savodxonlik,
- kiber-xavfsizlik ongı,
- onlayn hamkorlik,
- masofaviy intizom kabi qadriyatlar tobora muhim o‘rin egallamoqda.

Muhokama

Qadriyatlar transformatsiyasi, avvalo, shaxs va jamiyat ongidagi o‘zgarishlar bilan bog‘liq bo‘lib, bu jarayon tashqi ta’sirlarning ichki ehtiyojga aylanishi orqali yuzaga keladi. Transformatsiya jarayoni nafaqat yangilanish, balki muayyan ziddiyatlar yuzaga kelishi ehtimolini ham o‘z ichiga oladi. Agar globallashuv jarayonida milliy qadriyatlar ongli ravishda boshqarilmasa, ularning mazmuni zaiflashishi mumkin, biroq ilmiy va ma’naviy yondashuv asosida olib borilgan transformatsiya milliy o‘zlikni mustahkamlashga xizmat qiladi. An’anaviy va modern qadriyatlar o‘rtasidagi tafovut jamiyatning turli qatlamlarida turlicha qabul qilinadi. Shu sababli davlat siyosati moslashuvchan bo‘lishi, turli avlodlar qarashlari

(cc) BY

o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlashi zarur. Yangi O‘zbekistonda ma’naviy-ma’rifiy siyosatning modernizatsiyasi:

- yoshlar bilan ishlashning yangi mexanizmlari,
- zamonaviy ta’lim standartlari,
- ma’naviy immunitetni mustahkamlash choralarini talab etadi. Qadriyatlar transformatsiyasi boshqariladigan jarayon bo‘lishi lozim, aks holda global axborot oqimining bosimi milliy identitetga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. J.Habermas fikriga ko‘ra, “ommaviy makonning tarixiy transformatsiyasi jamiyatda hukmron bo‘lgan qadriyatlar tizimining o‘zgarishi bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, ratsional-muhokama tamoyili asta-sekin instrumental va utilitar qadriyatlar bilan almashina boshlaydi” [5].

Islohotlarning natijadorligi fuqarolarning dunyoqarashi va qadriyatlar tizimi bilan bevosita bog‘liq. Masalan, tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha yaratilgan sharoitlar ahamiyatli bo‘lsa-da, tashabbuskorlik va mas’uliyat qadriyati rivojlanmagan jamiyatda ularning samarasini to‘liq ko‘rsatishi qiyin.

Xulosa. Yangi O‘zbekiston sharoitida qadriyatlar transformatsiyasi ijtimoiy taraqqiyotning zaruriy bosqichidir. Ushbu jarayon:

- demokratik islohotlar,
- globallashuv,
- raqamli modernizatsiya,

J.Habermas ommaviy makondagi o‘zgarishlarni demokratik qadriyatlarning transformatsiyasi sifatida talqin qilib, fuqarolarning faol subyekt sifatidagi ishtiroki tomoshabinlik va iste’molchilik pozitsiyasi bilan almashayotganini ta’kidlaydi[6]. Bu esa yosh avlodning o‘zgarayotgan ehtiyojlarida namoyon bo‘ladi. An’anaviy jamiyatda asosan axloqiy va ma’naviy vazifa bajargan milliy qadriyatlar globallashuv sharoitida ijtimoiy-siyosiy va madaniy identifikatsiya vositasiga aylanmoqda. Transformatsiya jarayonining muvaffaqiyati milliy identitetni saqlagan holda, zamonaviy dunyo talablariga moslashuvning uyg‘unligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Qadriyatlarni yangilash - Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining ijtimoiy-ma’naviy poydevoridir. Bu jarayon jamiyat ongining yangilanishi, fuqarolik mas’uliyatining kuchayishi va modern dunyoqarashning shakllanishiga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev, Sh. M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. Toshkent: O‘zbekiston NMIU. 2021.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi. 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston Taraqqiyot strategiyasi. Toshkent. 2022.

3. G‘ofurov, U. Globallashuv va milliy qadriyatlar: nazariya va amaliyot. Toshkent: “Ma’naviyat” nashriyoti. 2020.

(cc) BY

4. G‘ofurov, U. Globallashuv va milliy qadriyatlar: nazariya va amaliyot. Toshkent: “Ma’naviyat” nashriyoti. 2020.

5. Habermas, J. The Structural Transformation of the Public Sphere. Cambridge: MIT Press. 1996.

6. Habermas, J. The Structural Transformation of the Public Sphere. Cambridge: MIT Press. 1996.

(cc) BY